

AXBOROT VA UNING TURLARI

Axborot tushunchasi hozirgi davrda nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, madaniy va pedagogik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inson hayotidagi deyarli har bir jarayon axborot almashinuvi bilan bog'liq. Shu sababli axborotni to'g'ri tushunish, tahlil qilish va farqlash mediasavodxonlikning eng muhim bosqichlaridan biridir.

“Axborot” so‘zi arab tilidagi “xabar” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ma’lumot”, “yangilik”, “bildirish” ma’nolarini anglatadi. Ko‘plik shakli “axbor” yoki “axborot” bu inson ongiga ta’sir qiluvchi, ma’lum bir ma’no va mazmunga ega bo‘lgan ma’lumotlar majmuasini bildiradi.

Axborot tushunchasiga turli xalqaro manbalarda keng yondashuvlar mavjud. Oxford English Dictionary’ga ko‘ra, axborot biror narsa yoki shaxs haqida olingan yoki uzatilgan faktlar majmuasi, muayyan holat yoki voqea to‘g‘risida yetkazilgan bilimdir. Britannica ensiklopediyasida esa axborot bilimni uzatish jarayoni bo‘lib, u qabul qiluvchidagi noaniqlikni kamaytiruvchi tartibli va ma’noli tuzilma sifatida talqin qilinadi.

Merriam-Webster lug‘atida axborot tadqiqot, o‘rganish yoki o‘qitish natijasida olingan bilim deb izohlanadi. Cambridge Dictionary bu tushunchani “biror holat, shaxs yoki jarayon haqida uni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan faktlar majmui” deb tariflaydi. UNESCO esa axborotni “ma’no va qiymat kasb etadigan tarzda qayta ishlangan ma’lumot” deb ta’riflaydi.

Bu ta’riflarning barchasi umumiy bir mazmunga ega: axborot bu shunchaki so‘zlar, raqamlar yoki belgilar emas, balki maqsadli, tushunilgan, tartibga solingan va inson uchun qiymatga ega bilimdir.

Axborot mazmuni va maqsadiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi. Ularning birinchisi **haqiqiy axborot** bo‘lib, u faktlarga asoslanadi va ishonchli manbalardan olinadi. Masalan, “Bugun Toshkentda havo harorati 22 daraja” degan ma’lumot aniq o‘lchov natijasiga tayanadi.

Shuningdek, **subyektiv axborot** ham mavjud. Bu insonning hissiyoti yoki shaxsiy fikriga asoslanadi. Masalan, “Bugun juda issiq bo‘ldi” degan jumla fakt emas, balki subyektiv fikr ifodasidir.

Uchinchi tur esa **noto‘g‘ri yoki soxta axborot**, ya’ni u ataylab yoki bilmasdan tarqatilgan, jamiyatda noto‘g‘ri tasavvur hosil qilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlardir.

Haqiqiy axborot dalillar bilan tasdiqlanadi, manbasi aniq bo‘ladi, rasmiy tashkilotlar tomonidan tasdiqlanadi. **Soxta axborot** esa ko‘pincha hissiyotga tayanadi, tez tarqaladi, lekin manbasi noma‘lum bo‘ladi. Masalan, “Prezident yangi farmon imzoladi” degan xabar president.uz yoki lex.uz sayti yoki boshqa shu kabi rasmiy manbalarda e‘lon qilingan bo‘lsa, bu **haqiqiy axborot**dir. Ammo “Prezident ertadan boshlab barcha fanlarni onlayn o‘qitishga buyruq berdi” degan xabar noma‘lum Telegram kanalida tarqalsa, bu **soxta axborot** hisoblanadi.

Soxta xabarlar odatda odamlarning e‘tiborini tortish, ularning hissiyotiga ta‘sir o‘tkazish yoki sarosimali vaziyatlarni keltirib chiqarish maqsadida tarqatiladi. Ular uch asosiy yo‘nalishda uchraydi:

- e‘tiborni tortish va “klik” yig‘ish;
- manipulyatsiya qilish;
- jamoatchilikda xavotir uyg‘otish.

Soxta axborotlardan himoyalaniish uchun uchta oddiy, lekin samarali qoidaga amal qilish zarur. Birinchidan, har qanday xabarni o‘qiganda yoki eshitganda **manbasini tekshirish kerak**. Ikkinchidan, **sana va kontekstga e‘tibor berish** muhim. Ba‘zida eski xabarlar yangilik sifatida qayta tarqatiladi. Uchinchidan, yangilikni **ishonchli rasmiy manbalar bilan solishtirish** kerak. Shu uch qadam orqali axborot ishonchliligini aniqlash mumkin.

Ta‘lim jarayonida ham o‘quvchilarni axborotni tahlil qilishga o‘rgatish juda muhim. Masalan, sinfda amaliy mashq sifatida uch xil yangilikni tahlil qilish topshirig‘ini berish mumkin: biri haqiqiy, biri manipulyativ, biri hazil tarzida yozilgan. O‘quvchilar jamoaviy muhokama qilib, ularning manbasini, maqsadini va hissiy ta‘sirini aniqlaydi. Bunday mashq tanqidiy fikrlash, dalil asosida xulosa chiqarish va axborot madaniyatini rivojlantiradi.

Zero, o‘qituvchi o‘quvchilarning axborotga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi shaxsdir. U nafaqat bilim beruvchi, balki axborot madaniyatining namunasi bo‘lishi kerak. Har bir yangilikni tekshirish, rasmiy manbaga tayanish, shoshqaloqlik bilan xabar tarqatmaslik – bular nafaqat o‘qituvchining qanchalik mediasavodxonligini belgilaydi, balki ta‘lim jarayonining yana qiziqarli va samarali bo‘lishini ham ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, axborot bu muayyan mazmunga ega, tartiblangan va tushunilgan ma‘lumotdir. Xalqaro manbalardagi ta‘riflarning barchasi shuni ko‘rsatadiki, axborot inson ongida noaniqlikni kamaytiradi, anglashni kuchaytiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi. O‘qituvchining vazifasi esa o‘quvchilarda shunday tahlil qilish va farqlash ko‘nikmasini shakllantirishdir. Chunki bugungi raqamli asrda haqiqiy ta‘lim bu bilim bilan birga, axborotni to‘g‘ri anglash san‘atidir.